



Leibniz-Zentrum für  
Agrarlandschaftsforschung  
(ZALF) e.V.



**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI (BUXORO TABIIY  
RESURSLARNI BOSHQARISH INSTITUTI) (O'ZBEKISTON),**

**BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING  
“QISHLOQ XO'JALIGI VA OZIQ OVQAT” TASHKILOTI (FAO),**

**GUMBOLT NOMIDAGI BERLIN UNIVERSITETI (GERMANIYA),**

**PRESOV UNIVERSITETI (SLOVAKIYA),**

**VALENSIYA POLITEXNIKA UNIVERSITETI (ISPANIYA),**

**ZALF AGROTEKNOLOGIYALAR ILMIY TADQIQOT MARKAZI  
(GERMANIYA),**

**INTI XALQARO UNIVERSITETI (MALAYZIYA),**

**HERRIOT WATT UNIVERSITETI (MALAYZIYA)**

**“YASHIL ENERGETIKA VA UNING QISHLOQ VA SUV XO'JALIGIDAGI  
O'RNI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY VA ILMIY-TEXNIKA VIY  
ANJUMANI**

## **MATERIALLAR TO'PLAMI**

**29-30-aprel, 2025-yil**

**ISSN: 978-9910-10-082-6**

**UO‘K 556.182:551.5(08)**

**BBK 26.222+26.236**

**«DURDONA» Nashriyoti**

**“Yashil energetika va uning qishloq va suv xo’jaligidagi o’rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy va ilmiy-texnikaviy anjumani materiallar to’plami (2025-yil 29-30-aprel) -B.: Buxoro davlat texnika universiteti (Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti), 2025.**

| <b>TAHRIR HAY’ATI RAISI:</b>   |
|--|
| <b>Imomov Shavkat Jaxonovich-</b> “TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti rektori, texnika fanlari doktori, professor.  |
| <b>BOSH MUHARRIR:</b>  |
| <b>Jo‘rayev Fazliddin O‘rinovich-</b> “TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yisha prorektori, texnika fanlari doktori, professor. |
| <b>MUHARRIR:</b>   |
| <b>Axmedov Sharifboy Ro‘ziyevich-</b> “TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti “GTI va NS” kafedrasi mudiri, texnika fanlari nomzodi, professor v.b.                   |
| <b>TAHRIRIYAT HAY’ATI A’ZOLARI:</b>  |
| <b>Ibragimov Ilhom Ahrorovich</b> -texnika fanlari doktori, dotsent  |
| <b>Jo‘rayev Umid Anvarovich</b> -qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor.   |
| <b>Rajabov Yarash Jabborovich</b> -texnika fanlari falsafa doktori, dotsent.   |
| <b>Laamarti Yuliya Aleksandrovna</b> - sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent   |
| <b>Marasulov Abdirahim Mustafoevich</b> - texnika fanlari doktori, professor.  |
| <b>Teshayev Muxsin Xudoyberdiyevich</b> -fizika-matematika fanlari doktori, professor  |
| <b>Boltayev Zafar Ixtiyorovich</b> - fizika-matematika fanlari doktori, professor  |
| <b>To‘xtayeva Habiba Toshevna</b> -geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b., professor.   |
| <b>Safarov Tolib Tojiyevich</b> -tarix fanlari nomzodi, dotsent.   |
| <b>Boltayev San’at Axmedovich</b> -texnika fanlari nomzodi, dotsent.   |
| <b>Jamolov Farxod Norkulovich</b> - texnika fanlari falsafa doktori, dotsent.  |
| <b>Barnayeva Muniraxon Abduraufovna</b> - texnika fanlari falsafa doktori, dotsent.  |

**To‘plamga kiritilgan tezislardagi ma’lumotlarning haqqoniyligi va iqtiboslarning tog‘riligiga mualliflar mas’uldir.**

© Buxoro davlat texnika universiteti (Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti).

© Mualliflar

Elektron pochta manzili: [buxtimi@mail.ru](mailto:buxtimi@mail.ru)

# TOZA EKOLOGIYA- BUYUK KELAJAK DEMAkdir

Jumayeva Sitora Rahmonovna

Buxoro davlat texnika universiteti assistenti. E-mail: sjumayeva652@gmail.com

Jumayeva Fotima Rahmonovna

Buxoro viloyat ekologiya va atrof-muhitni boshqarish boshqarmasi inspektori

Suyunova Sabrina Yangiboy qizi

Buxoro davlat texnika universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Kun sayin texnika-texnologiyalarni rivojlanishi, transport vositalarining ko'payishi, sanoat korxonalaridan chiqayotgan chiqindi gazlar, oqibatida atrof- muhitning buzilishi, tabiiy resurslarimiz bo'lgan tuproq, suv, havoning ifloslanishi butun dunyoda global muammoga aylanibdi bormoqda. Tezda bu muammoni hal qilish choralarini ko'rilmasa, toza ekologiyadan asar ham qolmaydi.

**Kalit so'zlar:** ekotizim, yashil iqtisodiyot, yashil transformatsiya, kolloid tayoqchalar, havo filtri.

Atrof-muhit ifloslanishi, havo, suv, tuproq va shovqin kabi tabiiy resurslarning inson faoliyati natijasida zararli moddalar bilan ifloslanishi holatidir. Bu ifloslanish ekotizimlarni buzib, o'simliklar, hayvonlar va inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Atrof-muhit ifloslanishi bugungi kunda biz duch kelayotgan eng jiddiy global muammolardan biridir. Ifloslanishning asosiy sabablari orasida sanoat faoliyatları, qishloq xo'jaligida kimyoviy moddalar qo'llanilishi, transport vositalari chiqindilari va chiqindi boshqaruvi muammolari bor. [2] Zero muxtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonlaridan 2025- yilni "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qilishlari zamirida ko'p ma'no yotadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi ishlab chiqildi. [1] Hozirgi kunda atmosfera havosining ifloslanganlik darajasi kunda-kunga yuqoriga ko'tarilib bormoqda. Bu o'zgarishlarga asosiy sabab sifatida aholi yashash tarzining o'zgarishi, texnika- texnologiyalarning ortishi, sivilizatsiyaning tabiatga ta'siri natijasida deb tushunish qiyinmas. Issiqxonalar, g'isht zavodlaridan yohud avtomobillardan chiqarayotgan tutunlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Qolaversa, aholi zax qochirish tarmoqlariga, sug'orish tarmoqlariga tashlanayotgan chiqindilar, turli hayvonlar jasadlari, birgina suvni bulg'amasdan butun bir tabiatga ziyon yetkazmoqda. Aholi ongida," Suv yetti marta aylansa- tozalanadi" degan qarash mavjud. Ammo biz mutaxassislar yaxshi bilamizki, suvga tashlangan hayvon qanday kasallik bilan o'lgan bo'lsa, aynan shu kasallik suvga o'tib qolishi va ushbu suvdan analiz olinganda inson hayotiga zararli bo'lgan kolloid tayoqchalar, bakteriyalar o'tish ehtimoli yuqori. Bu iflosliklar bilan zararlangan suvni tozalashda qancha sarf- xarajatlar qilinishidan aholini ogohlantirish yaxshi natija beradi deb o'ylaymiz. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida va Oliy Majlis palatalarining majlislarida belgilangan vazifalarning ijrosini og'ishmay tashkil etish, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi to'g'risida hadli konvensiyasining Kioto protokoli va Parij bitimi doirasida mamlakatning global hamjamiyat oldida olgan majburiyatlarini bajarishda tarmoq va sohalarning uyg'un "yashil transformatsiya"sinı amalga oshirish, ularning raqobatbardoshligi va resurs tejamkorligini ta'minlash, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish hamda aholining yashash sifatini yaxshilash va iqtisodiy o'sishning yangi "yashil rivojlanish" modeliga o'tish maqsadida; "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida mamlakat rivojlanishining ustuvor yondashuvlari etib quyidagilar belgilandi:

Mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, ko'chalarda yashillik darajasini oshirish, ekologik jihatdan qulay va farovon yashash muhitini shakllantirish;

Aholining salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratish;

-tabiiy resurslarni tejash va ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta'minlash;

-o'simlik va hayvonot dunyosini asrash, ko'paytirish va keyingi avlodga yetkazish hamda biologik xilma-xillikni saqlash;

"Yashil iqtisodiyot" tamoyillarini keng joriy qilish, iqtisodiyotni iqlim o'zgarishiga moslashadirishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish va hokazolar. [1]

O'z tahlillarida olimlar maishiy chiqindilar yoki kanalizatsiya kabi an'anaviy ifloslantiruvchi jihatni zamonaviy sanoat ifloslanishidan ajratib oldi. Tadqiqotda ayttilishicha, an'anaviy ifloslantiruvchi moddalardan o'lim dunyo bo'ylab kamayib borayotgan bo'lsa-da, ular afrikada asosiy muammo bo'lib qolmoqda.[3] Oddiyina oqova suvni qayta ishlatishda qancha jarayonlardan laboratoriyalardan foydalanishimizga to'g'ri keladi. Qolaversa havoni tozalashning tabiiy filtri bo'lgan daraxtlarimiz kesilib o'rniga mayda nihol qurilmoqda, kechirasizu katta daraxtni har bir bargi qancha kislorod ishlab chiqaradi. yangi niholga kelsak endigina barg chiqarayotgan nihol bo'lsa, undan ko'ra shu niholni ekib 5 yildan keyin kesilsin kamida yangi nihol joyiga ko'nishi javzodan o'tishi kerak. hozirda yashil makon platformasida kiritilayotgan daraxtlarni taqdiriga befarq bo'lmaylik daraxtlarni ko'p uzoqroq qilib emas, balki yaqinroq qilib ekishni yani 2-2.5 m uzunlikda ekish tavsiya qilinmoqda. sababi agarda yangi qurilgan nihol javzoda qurib qoladigan bolsa ikkinchisi ko'karib uni ham o'rnini to'ldiradi.Daraxtni ekishda zigzag usulida ekish usuli muhim rol o'ynaydi.Bu yerlearning meliorativ holatini asrashga yordam berib, shamol eroziyasidan asraydi.Eng kamida 200 mertgacha eroziyadan saqlaydi.Iloji boricha cho'l hududida saksaulzorlarni barpo etish muhim sanalib, ularni ham zigzag usulida qurgan ma'qul.Yashil belbog'ni davom etirmasak biz aholi orasida juda xavfli bo'lgan kasalliklar astma, bo'qoq, buronx yo'llarida uchraydigan kasalliklar bilan kurashishimizga to'g'ri keladi. 17 may, seshanba kuni the lancet planetary health jurnalida e'lon qilingan global o'lim va atrof-muhitning ifloslanishiga oid tadqiqotga ko'ra, har yili 9 millionga yaqin odam havo, tuproq va suv ifloslanishidan nobud bo'ladi.

Tadqiqotchilar ifloslanishni kasallik va erta o'lim bo'yicha dunyodagi eng katta ekologik xavf omili deb atadi.Olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra, har yili dunyoda har oltinchi o'limga shu sabab bo'ladi.Bundan tashqari, atrof-muhit ifloslanishining turli shakllari tufayli 2015 yilda jahon iqtisodiyoti 4,6 trillion dollar yo'qotdi (jahon yalpi ichki mahsulotining 6,2 foizi).[3] ba'zan savol tug'iladi, biz o'sib kelayotgan yosh avlodga, tabiatimizni qay darajada yetkazmoqdamiz?

"Iqlimi buzilib bo'lgan, hammasi sun'iy bo'lgan basseynlaru, soxtalikdan iborat bo'lgan istirohat bog'larini hadya qilyapmizmi? bu masala borasida faqatgina ekologiya hodimlari kurashishi kerakmi? yo'q bu butun bir dunyo aholisi qayg'urishi shart bo'lgan og'ir masala. to'g'ri mamlakat rahbariyati tomonidan atroflicha chora- tadbirlar ko'rilmoxda, ammo bu juda kam. faqat davlat emas, biz ham kelajagimiz uchun kurashishimiz lozim. chunonchi tabiatga, ekologiyaga yetkazayotgan har bir zararimiz ertaga bizga katta xavf bilan tahdid solishi aniq. bunga oddiyina orol dengizini misol qilishimiz mumkin. xulosa o'zimizdan.

## Foydalanilgan Adabiyotlar

[1]. <https://lex.uz/uz/docs/-7369703>

[2]. <https://www.nano-lab.com.tr/uz/blog/detail/atrofiya-muhitning-ifloslanishi-1246>

[3.] <https://www.kun.uz/news/2022/05/19/> ekologiyaning ifloslanishi dunyodagi har oltinchi olimning sababi ekani malum boldi

[4] <https://kknews.uz/oz/152163.html>

[5]<https://oriens.uz/journal/article/> shorlangan tuproqlar sharoitida kartoshkani intensiv yetishtirish samaradorligi/

[6]<https://cyberleninka.ru/article/n/> sho'rlangan tuproqlar sharoitida kartoshkani intensiv yetishtirish samaradorligi

[7] <https://kknews.uz/oz/152163.html>sonli qarori.